

“Mikrokreditbank” ATB Boshqaruv raisining

Korrupsiya holatlarining oldini olish va bu borada tizimli kurashish yuzasidan yo'llagan

MUROJAATI

Hurmatli mijozlar, hamkorlar, aksiyadorlar va hamkasblar!

Mikrokreditbank tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan barcha zaruriy choralarni ko'rish, ularni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha samarali tizim yaratishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan,

- korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tashkil etilib, ularning vakolat va huquqlari, shuningdek, bankning boshqa bo'linmalari bilan birgalikdagi hamkorligi ichki me'yoriy hujjatlar bilan aniq belgilab qo'yilgan;

- mavjud bo'sh ish o'rinlariga nomzodlarni ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish amaliyoti joriy etilgan;

- bank ehtiyojlari uchun xaridlarini shaffof tizim orqali amalga oshirish, ushbu jarayonda korrupsiyaviy xatarlarni aniqlash va bartaraf etish amaliyotlari joriy qilingan.

Shuningdek, bank faoliyatida korrupsiya holatlarining yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lgan kreditlash amaliyotlari bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda aholi va tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish eng ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Buning uchun eng avvalo, bank kredit portfelidagi eng katta yo'nalish - oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari shaffofligini ta'minlash va korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida imtiyozli kreditlarni "Oila kredit.uz" yagona elektron platforma orqali onlayn tartibda ajratish, integratsiyalashgan elektron axborot bazalari qarz oluvchilarni skoring tahlil qilish yo'lga qo'yildi.

Bankning yangi "MAVRID" mobil ilovasi ishga tushirilib, chakana bank xizmatlari to'liq raqamlashtirilmoqda, bunda jismoniy shaxslar uchun kreditlar, kommunal va barcha davlat xizmatlari uchun to'lovlarni onlayn o'tkazish, depozit operatsiyalari hamda plastik kartochkalar orqali barcha tranzaksiyalarni amalga oshirish imkoniyati yaratilgan.

Kichik biznes subyektlari va boshqa yuridik shaxslarning kredit olish yuzasidan murojaatlarini shaffof ko'rib chiqish maqsadida alohida skoring tizimi joriy etildi. Mazkur skoring tizimi qarz oluvchining moliyaviy holati, kredit tarixi, loyihani amalga oshirish istiqbollari aniq baholash hamda kredit tavakkalchiligini kamaytirish imkonini beradi. Ushbu biznes jarayonlarning joriy etilishi, loyihalarni moliyalashtirish tizimini samarali boshqarish, ortiqcha aralashuvlar, korrupsiyaning oldini olish, kreditlash jarayonini shaffof va tezkor ko'rib chiqilishiga zamin yaratadi.

Mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida 2020-yilda bankimizda Aloqa markazi tashkil etilgan. Aloqa markazi faoliyatida jadal transformatsiya jarayonlari amalga oshirildi. Jumladan, joriy yilda bankning Aloqa markazi tomonidan mijozlarga qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida murojaatlarni tizimli qayta ishlash bo'yicha yangi "Jira" dasturi joriy etildi.

Mikrokreditbankda korrupsiyaning oldini olish choralarni ko'rish, uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash hamda bartaraf etish, korrupsiyaga qarshi murosasiz muhitni shakllantirish borasidagi ishlar kelgusida ham izchillik bilan davom ettiriladi.

Mikrokreditbank korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish bo'yicha ishlarni samarali tashkil etishda Sizlarning faolligingiz va tashabbuslaringizni qo'llab-quvvatlaydi.

Mikrokreditbankning bosh ofisi, uning mintaqaviy filiallari hamda barcha bank bo'linmalari xodimlarining qonunchilikka zid xatti-harakatlari yoki harakatsizliklarining guvohi bo'lsangiz yoki xodimlarning

korrupsiya va boshqa huquqbuzarlik holatlariga aloqadorligi yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'lsangiz, bankning (55) 503-77-11 raqamli Ishonch telefoni yoki ushbu aloqa kanallari: telegram bot: @mkbanticor_bot va rasmiy veb-sayt www.mkbank.uz (Antikorrupsiya) bo'limi orqali o'z murojaatingizni yo'llashingiz mumkin.

Murojaatingiz qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarda ko'rib chiqiladi hamda tasdiqlangan korrupsion holatlar bo'yicha keskin qonuniy choralar ko'riladi.

O'z navbatida, Mikrocreditbankda mehnat qilayotgan har bir rahbar va xodimni korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishga hamda o'z xizmat vazifalarini halol va xolis bajarishga yana bir bor chaqiraman.

Hurmat bilan,

Butayev Orif Aliboyevich

“Mikrocreditbank” ATB Boshqaruvi raisi